

**OZODLIKNI CHEKLASH JAZOSI TAYINLANGAN SHAXSLARNI ELEKTRON  
BRASLET ORQALI MASOFADAN TURIB NAZORAT QILISH TARTIBI**

**Axmedov Abrorjon Anvarjonovich**

*O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada ozodlikni cheklash jazosi qo‘llanilgan shaxslarni masofadan turib nazorat qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish orqali javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlash va jazo ijrosi ustidan samarali nazoratni o‘rnatish masalalari bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** Ozodlikni cheklash, probatsiya, jazo chorasi, elektron braslet, ichki ishlar organi, jamoat xavfsizligi, cheklovlar, mahkum, nazorat qilish.

**ПОРЯДОК ДИСТАНЦИОННОГО КОНТРОЛЯ ЛИЦ, ПРИГОВОРЕННЫХ  
К ОГРАНИЧЕНИЮ СВОБОДЫ, ПОСРЕДСТВОМ ЭЛЕКТРОННОГО  
БРАСЛЕТА.**

**Аннотация.** В данной статье изложены вопросы обеспечения неотвратимости ответственности и установления эффективного контроля за исполнением наказания путем внедрения практики дистанционного контроля за лицами, к которым применено наказание в виде ограничения свободы.

**Ключевые слова:** Ограничение свободы, пребывание под надзором, электронный браслет, орган внутренних дел, общественная безопасность, ограничения, осужденный, контроль.

**PROCEDURE FOR REMOTE MONITORING OF PERSONS SENTENCED TO  
RESTRICTION OF LIBERTY USING AN ELECTRONIC BRACELET.**

**Abstract.** This article sets out the issues of ensuring the inevitability of responsibility and establishing effective control over the execution of punishment by establishing the practice of remote monitoring of persons subjected to punishment in the form of restriction of liberty.

**Keywords:** Restriction of freedom, probation, penalty, electronic bracelet, internal affairs body, public safety, restrictions, convict, control.

So‘nggi yillarda ichki ishlar organlari tizimida jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat xavfsizligini ta‘minlashda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta‘minlash borasida javobgarlik muqarrarligini ta‘minlash, qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish, jazo ijrosi

ustidan samarali nazorat mexanizmini o'rnatish uchun yangi texnologiyalarni qo'llash talab etilmoqda.

Ozodlikni cheklash jazosi qo'llanilgan shaxslarni masofadan turib nazorat qilish amaliyotini yo'lga qo'yish orqali javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash va jazo ijrosi ustidan samarali nazoratni o'rnatish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Probatsiya to'g'risida»gi Qonuni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»[2] hamda «O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»[3] farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uy qamog'i ehtiyyot chorasi qo'llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi qarorlari [4] ozodlikni cheklash jazosi qo'llanilgan shaxslarni masofadan turib nazorat qilish tartibini joriy etish bo'yicha huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 5 dekabrdagi “Uy qamog'i ehtiyyot chorasi qo'llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 813-sun qarorida, ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanib bunda ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning ehtiyyot chorasi va jazoni ijro etish joyida bo'lishini elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibini belgilangan.

Bunga ko'ra, elektron braslet ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxs oyog'ining boldir qismiga taqiladi. Shaxs oyog'ining boldir qismiga elektron brasletni taqish imkoniyati mavjud bo'limgan hollarda (suyak sinishi, boshqa jarohatlar bilan tibbiy muolaja ko'rsatilgan va boshqalar) qo'l qismiga taqilishiga ruxsat etiladi.

Ayol jinsidagi shaxsga elektron braslet u bilan bir jinsdagi xodim (ichki ishlar organi jamoat xavfsizligi xizmati huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmasi xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori) tomonidan taqiladi hamda yechib olinadi.

Ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsga nosoz yoki elektr quvvati to'liq bo'limgan elektron brasletni taqishga yo'l qo'yilmaydi.

Ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan quyidagi shaxslarga elektron braslet qo'llash mumkin emas:

o'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslar;

homilador ayollar;

uch yoshga to'limgan bolalari bor ayollar;

birinchi yoki ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslar;

tibbiy ko'rsatmaga ko'ra elektron brasletni taqish tavsiya etilmaydigan shaxslar

(implant qilingan kardiostimulyator o'rnatilgan shaxslar, yuqumli teri kasalligi (allergo kontakt dermatit, teri zamburug'i yoki qichima kasalligi) bo'lgan shaxslar).

Shuningdek, ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi belgilangan bo'lib, sudning uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi ajrimi nusxasi «Elektron jinoiy-huquqiy statistika» axborot tizimi orqali «Elektron braslet» axborot tizimiga yuboriladi.

Sudning ajrimi nusxasi kelib tushgan vaqtdan boshlab bir ish kuni ichida tuman (shahar) ichki ishlar organi boshlig'ining yozma topshirig'i asosida «Elektron braslet» axborot tizimida ijrochi xodimlar belgilanadi.

Ozodlikni cheklash tarzidagi jazoni o'tash tartibi talablarini bajarmayotgan yoki jazoni o'tash davrida jamoat tartibini buzish bilan bog'liq huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan probatsiya nazoratidagi shaxsga nisbatan tuman (shahar) ichki ishlar organi probatsiya bo'linmasi boshlig'ining qarori asosida elektron braslet qo'llaniladi.

Tuman (shahar) ichki ishlar organi probatsiya bo'linmasi boshlig'ining ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish to'g'risidagi qarori «Elektron braslet» axborot tizimida rasmiylashtiriladi.

Qaror rasmiylashtirilgan vaqtdan boshlab bir ish kuni ichida «Elektron braslet» axborot tizimida ijrochi xodimlar belgilanadi.

Ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, jinsi, tug'ilgan yili, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR), elektron braslet taqilgan vaqt, elektron brasletning individual raqami, ijrochi xodimlarning familiyasi, ismi, otasining ismi va telefon raqami «Elektron braslet» axborot tizimida qayd etiladi.

Ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsga ijrochi xodimlar tomonidan ushbu Nizomda belgilangan huquqlari va majburiyatları tushuntiriladi hamda bu haqida undan tilxat olinadi.

Bundan tashqari, uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan yoki ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsga elektron braslet taqilganligi haqidagi ma'lumotlar «Elektron braslet» axborot tizimiga kiritilgan vaqtdan boshlab bir ish kuni ichida elektron brasletni faollashtiradi.

Ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarga taqilgan elektron brasletlarning texnik sozligini (faol holatda turganligini) «Elektron braslet» axborot tizimidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilib borish orqali masofadan turib nazorat qiladi.

Ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsga taqilgan elektron brasletning elektr quvvati tugaganligi, ushbu shaxs elektron brasletni yechganligi yoki elektron brasletning texnik topshirig'ida belgilangan radius oralig'idan tashqariga chiqqanligi haqidagi onlayn xabar kelib tushganda, darhol ijrochi xodimlarni bu haqida xabardor

etadi va ushbu xabarni «Elektron braslet» axborot tizimida qayd etadi.

Elektron brasletlar bilan ta'minlash va ularni saqlash esa xizmat ko'rsatuvchi tashkilot haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida tuman (shahar) ichki ishlari organlarini zarur miqdordagi elektron brasletlar bilan ta'minlaydi, tuman (shahar) ichki ishlari organlarida saqlanayotgan nosoz holatdagi elektron brasletlarni soz holatdagi elektron brasletlarga almashtiradi, ijrochi xodimlarning elektron brasletni qo'llash va uning dasturiy ta'minotini ishlatish ko'nikmasini mustahkamlash bo'yicha o'quv-amaliy seminarlar o'tkazadi, elektron brasletlarning dasturiy ta'minotida yuzaga keladigan texnik nosozliklarni bartaraf etadi, elektron brasletlar va ularning dasturiy ta'minotini tizimli ravishda takomillashtirib boradi.

Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi xizmat ko'rsatuvchi tashkilot (ijrochi) hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlari vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Huquqbazarliklar profilaktikasi xizmati va Probatsiya boshqarmasi (buyurtmachilar) o'rtaida qonunchilikda belgilangan tartibda tuziladi.

Ushbu shartnomada belgilangan haq O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlari vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Huquqbazarliklar profilaktikasi xizmatining huquqbazarliklar profilaktikasi tizimini rivojlantirish jamg'armasi hamda Probatsiya boshqarmasining probatsiya xizmatini rivojlantirish jamg'armasidan ajratilgan mablag'lar hisobidan to'lanadi.

Ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish bo'yicha texnik topshiriq shaxsga oid ma'lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablar aks ettirilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlari vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Huquqbazarliklar profilaktikasi xizmati hamda Probatsiya boshqarmasi tomonidan ishlab chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi ichki ishlari vazirining o'rinnbosari — Jamoat xavfsizligi departamenti boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Elektron brasletlar ichki ishlari organlarining navbatchilik qismlaridagi maxsus vositalarni saqlash xonalarida saqlanadi.

Elektron brasletlarni maxsus vositalarni saqlash xonasida saqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlari vazirligi tomonidan belgilanadi.

Bu borada, tuman (shahar) ichki ishlari organi navbatchilik qismi, xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan taqdim etilgan elektron brasletlarni qabul qilib oladi, elektron brasletlarni tuman (shahar) ichki ishlari organining maxsus vositalarni saqlash xonasida belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlaydi, elektron brasletlarning harakatini (ijrochi xodimlarga topshirish va ulardan qabul qilib olishni) «Elektron braslet» axborot tizimida yuritadi.

«Elektron braslet» axborot tizimining elektron brasletlar harakatini qayd etish bo'limida, elektron braslet berilgan ijrochi xodim familiyasi, ismi va otasining ismi hamda lavozimi, berilgan elektron brasletning individual raqamlari, elektron braslet

berilgan hamda qabul qilib olingan sana va vaqt, elektron brasletning topshirish vaqtidagi holati (soz yoki nosozligi), elektron brasletni qabul qilib olgan va topshirgan ijrochi xodimning familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatiladi.

Elektron brasletlarning texnik sozligi, elektr quvvatining to'liqligi tuman (shahar) ichki ishlar organi navbatchilik qismi mas'ul xodimlari tomonidan doimiy ravishda nazorat qilib boriladi. Ijrochi xodimlarga nosoz yoki elektr quvvati to'liq bo'lмаган elektron brasletlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Elektron brasletni qabul qilib olgan ijrochi xodim elektron brasletning sozligini va elektr quvvati to'laligini, «GPS» signali ishlayotganligini hamda maxsus tasmasi butligini tekshiradi.

Elektron brasletda nosozliklar aniqlanganda nosoz elektron braslet topshirilib, soz elektron brasletga almashtiriladi.

Elektron brasletdan foydalanishdan oldin ijrochi xodim tomonidan uning maxsus tasmasiga dezinfeksiya vositalari (antiseptik, spirt) yordamida ishlov beriladi.

Shungdek, elektron brasletdan foydalanish yakunlangandan so'ng ijrochi xodim tomonidan maxsus tasmaga dezinfeksiya vositalari (antiseptik, spirt) yordamida ishlov berilgan holda, elektron brasletlar tegishlicha tuman (shahar) ichki ishlar organi navbatchilik qismiga topshiriladi.

Topshirayotgan elektron brasletlar tuman (shahar) ichki ishlar organi navbatchilik qismi mas'ul xodimlari tomonidan tashqi ko'rrikdan o'tkazilgandan so'ng «Elektron braslet» axborot tizimida qayd etish yo'li bilan qabul qilib olinadi.

Elektron brasletlarni qo'llashda ijrochi xodimlarning huquqlari va majburiyatlarida elektron brasletlarni qo'llashda ijrochi xodimlar quyidagi huquqlarga egaligi ko'rsatilgan;

❖ ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsdan zudlik bilan tuman (shahar) ichki ishlar organi ma'muriy binosiga yetib kelishini so'rash;

❖ uy qamog'i ehtiyyot chorasi qo'llanilgan yoki ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsga ushbu Nizomda belgilangan huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish, bu haqida undan tilxat olish;

❖ uy qamog'i ehtiyyot chorasi qo'llanilgan yoki ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsga elektron brasletni tuman (shahar) ichki ishlar organi ma'muriy binosida taqish;

❖ uy qamog'i ehtiyyot chorasi qo'llanilgan yoki ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsning yozma murojaati asosida elektron brasletni jarohat mavjud bo'lgan oyoqdan yechib, sog' oyoqqa yoki qo'lga taqish;

❖ uy qamog'i ehtiyyot chorasi qo'llanilgan yoki ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsga tibbiy ko'rsatma asosida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish yoki tibbiy tekshiruvdan o'tkazish davomida undan elektron brasletni vaqtincha yechib olish va tibbiy yordam ko'rsatilganidan (tibbiy tekshiruv o'tkazilganidan) keyin ushbu

shaxsga elektron brasletni taqish.

Shuningdek, elektron brasletlarni qo'llashda ijrochi xodimlar:

✓ uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan yoki ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsga elektron brasletni taqishdan oldin uning sozligini, elektr quvvati to'laligini va maxsus tasmasi butligini tekshirishi, elektron brasletning maxsus tasmasiga dezinfeksiya vositalari (antiseptik, spirt) yordamida ishlov berishi;

✓ uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan yoki ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsga taqilgan elektron brasletda nosozliklar aniqlanganda (elektron braslet taqilgan shaxs uni nosoz holatga keltirganda), zudlik bilan nosoz elektron brasletni soz elektron brasletga almashtirishi va bu haqda tuman (shahar) ichki ishlar organi boshlig'iga yozma axborot berishi;

✓ uy qamog'i ehtiyot chorasini ijro etish muddati yakunlanganda yoki ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxs probatsiya hisobidan chiqarilayotgan vaqtida yoxud jazoni o'tash tartibiga rioya etgan va jamoat tartibini buzishga yo'l qo'ymagan taqdirda, elektron braslet qo'llanilgan kundan e'tiboran uch oy o'tgach, ushbu shaxsdan tuman (shahar) ichki ishlar organi ma'muriy binosida elektron brasletni yechib olishi;

✓ yechib olingan elektron brasletni uning maxsus tasmasiga dezinfeksiya vositalari (antiseptik, spirt) yordamida ishlov bergen holda, tuman (shahar) ichki ishlar organining maxsus vositalarni saqlash xonasiga topshirishi;

✓ yagona elektron monitoring markazining elektron braslet onlayn signali ishga tushganligi haqidagi xabarini olgan vaqtidan boshlab darhol ushbu Nizomning 28 — 30-bandlarida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishi shart.

Elektron braslet qo'llaniladigan shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

– elektron braslet qo'llanilishidan oldin ushbu Nizomda belgilangan huquqlari va majburiyatları to‘g‘risidagi ma'lumotlarni ijrochi xodimlardan olish;

– elektron brasletni jarohat mavjud bo‘lgan oyoqdan yechib, sog‘ oyoqqa yoki qo‘lga taqish bo‘yicha ijrochi xodimlarga yozma murojaat qilish;

– tibbiy ko‘rsatma asosida shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish yoki tibbiy tekshiruvdan o‘tkazish davomida elektron brasletni vaqtincha yechib turishni so‘rash (tibbiy tekshiruvlar tugagunga qadar);

– elektron brasletda nosozlik yuzaga kelganda, uni soz elektron brasletga almashtirish bo‘yicha ijrochi xodimlarga murojaat qilish.

Elektron braslet qo'llaniladigan shaxslar elektron brasletni belgilangan vaqt ichida quvvatlab borish orqali uning elektr quvvati tugamasligini ta'minlashi, elektron brasletni o‘zboshimchalik bilan yechmasligi, elektron brasletga zarar yetkazish bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirmasligi shart.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni masofadan turib nazorat qilish maqsadida elektron

brasletlardan foydalanish tizimi – jazo ijrosining samaradorligini ta'minlash, qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish, va jamoat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu tizim:

- ✓ Jinoyatchilikni kamaytirishga;
- ✓ Davlatning jazo siyosatida shaffoflikni ta'minlashga;
- ✓ Axborot texnologiyalari yordamida huquqbuzarliklarni tezkor aniqlashga;
- ✓ Qonuniylik va inson huquqlari kafolatlarini ta'minlashga ko'maklashadi.

Shu bilan birga, elektron nazorat vositalarining samarali ishlashi uchun texnik xizmat sifatini oshirish, ijrochi xodimlarni muntazam tayyorlash va ma'lumotlarni himoya qilish kabi masalalarga ham jiddiy e'tibor qaratish zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.T.:2023 yil. <https://constitution.uz/uz>
2. O'zbekiston Respublikasining «Probatsiya to'g'risida»gi Qonuni 07.08.2024 yildagi O'RQ-938-son// <https://www.lex.uz/uz/docs/7050441>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagи «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6196-son farmoni// <https://www.lex.uz/docs/5344118>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-27-son farmoni// <https://lex.uz/docs/6396146>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 5 dekabrdagi “Uy qamog'i ehtiyyot chorasi qo'llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 813-son qarori// <https://www.lex.uz/docs/7249299>.